

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 256 (1317), 2024-yil 18-dekabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON – QATAR: FAOL MULOQOT VA ALMASHINUVLAR NATIJALARI IJOBIY BAHOLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan 17-dekabr kuni qilgan telefon orqali suhbatda oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish va investitsiya loyihalarini ilgari surish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Qatar Amirini milliy bayram — Davlatga asos solingan kun bilan samimiy qutlab, unga sihat-salomatlik, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, do‘st Qatar xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Faol muloqot va almashinuvlar natijalari ijobiy baholandi. Joriy yilning noyabr oyida Doha shahrida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi va biznes forumi samarali o‘tdi. Oktyabr oyida Toshkent shahrida Qatar madaniyati haftaligi tadbirlari muvaffaqiyatli tashkil etildi.

Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida energetika, transport va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Poytaxtlar o‘rtasida muntazam to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilgani o‘zaro sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.

Suhbat chog‘ida davlat rahbarlari 2025-yilda bo‘lajak tadbirlar rejasiga, shu jumladan, “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqotining ikkinchi sammitini o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

## IQTISODIY MASALALARNING EKOLOGIK YECHIMI

Eko tafakkur

Yurtimizda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilindi. Keling, ushbu maqolamizda atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot qanday bo‘lishi haqida fikr yuritsak. Umuman, yil nomi bilan kun tartibiga chiqayotgan masalalar ahamiyatini kengroq tahlil etsak.

Tabiatni asrash insonni asrash demakdir

Bugun ekologik masalalar har doimgidan ham ko‘proq ahamiyat kasb etyapti. Global isish, zararli gazlar ko‘payishi, o‘mmonlaming ayovsiz kesilishi, sanoat chiqindilari oqibatida tuproq va suv tarkibidagi o‘zgarishlar... Buning barchasi tabiat muvozanatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, bundan 20-30 yil oldin har yili qishda qalin qor yog‘ardi. Hozir hatto tog‘larda ham qor kam bo‘lyapti. Qishda quruq qora sovuq, yozning me‘yordan ortiq jaziramasini oqibatida muzliklar erib ketaypti.

Davomi 3-betda



Tahlil

## YANGI HAYOT:

Poyezd tunnel ichidan shiddat bilan ilgariyilmoqda. Uning o‘ziga xos shovqini odamlarning ovozi yutib yuboradi. Har bokatda manzilni eslatib turadigan o‘sha tanish ovoz bir muddat hammani hushyor tortirdi: “Ehtiyot bo‘ling, eshiklar yopiladi. Keyingi bokat...”. Bir vaqt qafasdan ozod bo‘lgan qushday poyezd yorug‘likka otilib chiqdi. Yer ustidagi ilon izi yo‘lda ilgariyil borar ekan, uning oynalariga olisdagi tog‘lar ustidan ko‘tarila boshlagan quyosh nurlari tushadi.

Atrofqa qarayman. Poyezd bilan bo‘ylashib yoxud undan ham teparoq binolarga qarab ko‘ngilga shukuh o‘rlaydi. Binolar orasida bir qator joylashgan mashinalar, bolalar o‘yingohlari, futbol maydonlari, bozorchalalar ko‘zga tashlanadi. Yonimda o‘tirgan yoshi kattaroq kishiga yuzlanaman. Uni suhbatga tortaman. Suhbatimiz tezda qizib ketdi:

— Umrimning ancha qismini istiqlolni qo‘msab, yurtimizning yorug‘ kunlarga yetishini kutib o‘tkazganman. U vaqtlarda eng og‘ir mehnatni qilib, paxta dalasidan kech kuzning sovug‘ida ham beri kelmagani, shunday bo‘lsa-da, qora qozoni qiyinchilik bilan qaynagan odamlar ko‘p edi. Biz esa



Industrial salohiyat JAHONGA YUZ TUTMOQDA



yurtdoshlar taqdirini muhokama qilishdan nariga o‘tolmasdik. Toshkentga o‘tgan asrning yetmishinchi yillarida kelgandik. 35 yil o‘qituvchilik qildim. Anavi ko‘rinib turgan joylar u vaqtlarda sovxoz edi, — deydi o‘zini asli marg‘ilonlik deb tanishtirgan Maqsum bobo. U kishi ko‘rsatgan joylarda hozir ko‘p qavatli binolar qad rostlab turibdi. — Mana bunday yer ustida yurishimizni tushimizda ham ko‘rmaganmiz. Bugun yashasak ham bo‘larkan-ku deb o‘ylab qolaman. Kelgan yillarim ijarada turardik. Ish joyim shahar markazida bo‘lgani bois, erta bilan yo‘lga tushardim. Sababi, yetib olish mushkul, ajab zamonlar edi. Hozir esa sanoqli daqiqalarda shahar markaziga yetib boryapmiz...

Davomi 4-betda

## Yuksalish pallasini GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI barqaror taraqqiyot omili

Mamlakatimiz Gender tenglik va boshqaruv indeksi(GEGI) da yanada yuqoriladi. Ushbu indeks beshta asosiy sohada gender tengsizlikni baholab kelmoqda. Unga ko‘ra, mamlakatimiz boshqaruv, ta‘lim, IT, mehnat, tadbirkorlik va zo‘ravonlikning oldini olish sohalarida erishilgan ijobiy natijalarga ko‘ra 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi.

Ushbu indeks 158 mamlakatni qamrab olib, gender tenglikka erishish yo‘lida muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. O‘zbekistonning mazkur xalqaro reytingda yuqori o‘ringa ko‘tarilishida, avvalo, ta‘lim tizimida keng imkoniyatlar yaratilgani muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, ayollar bandligini ta‘minlash, zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish borasidagi islohotlar katta yutuqlarga muhim poydevor bo‘lmoqda.

Jamiyatimizning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lgan opa-singillarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash, huquq va manfaatlarini to‘liq ta‘minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda ham to‘liq ifodasini topgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma‘naviy hayotida xotin-qizlar ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Ularning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foiz, tadbirkorlik sohasida 37 foiz, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a‘zolarining 27 foizi, mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizini ayollar tashkil etmoqda. Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 2018-yilda qariyb 3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan

davrdan ikki barobar oshib, 5,7 foizga yetdi. Ishbilarmon ayollar safi ham ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Salkam yarim million xotin-qiz ish bilan ta‘minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta‘lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

“Ayollar daftari” tizimi asosida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyogi bo‘lgan ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi yo‘lida “Ayollar daftari”ning 5-bosqichida 1 million 300 ga yaqin xotin-qiz mazkur ijtimoiy daftarga kiritilib, 995 ming 200 nafardan ortig‘iga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 548 mingdan ko‘proq ishsiz xotin-qizning bandligi ta‘minlandi. Shuningdek, 35 mingdan ziyod xotin-qizga tadbirkorlik qilishi uchun kreditlar ajratildi. Boquvchisini yo‘qotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj minglab opa-singillarimizga ko‘mak berildi. Nogironligi bo‘lgan va shoshilinch tibbiy muolajaga muhtoj ko‘plab ayollarga moddiy yordam ajratildi. Uy-joyga ehtiyoji bo‘lganlarga yashash sharoitini yaxshilashda ko‘maklashildi.

Davomi 2-betda

## IJTIMOY DAVLAT — INKLYUZIV JAMIYAT

Munosabat



Muhtojlarga yordam berish, qiynalganning qo‘lidan tutish kabi ezgu fazilatlar xalqimizning qonida bor. Odamlarimiz savobli amallardan hech qachon o‘zini tortmagan. Ota-bobolarimiz ehtiyojmandlarga yelka tutib, xotirjamlik va qalb osoyishtaligi bilan baxt yaratgan.

Davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda bildirilgan fikrlar barchamizni bu haqda chuqur o‘ylashga, shunga qarab rejalar tuzishga undadi.

Har qanday davlatda ham, har qaysi zamonda ham yordamga

muhtoj, kam ta‘minlanganlar, ko‘p bolali, nogironligi bor yoki yolg‘iz qariyalar uchraydi. Adolatli jamiyat esa ularni tashlab qo‘ymaydi, himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi. Bugun yangi O‘zbekistonning erkin bozor munosabatlarga o‘tish sharoitida ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlikka asoslangan xalqparvar siyosati xalqaro

munbarlarda e‘tirof etilayotgani kishiga mamnuvniyat bag‘ishlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda bu yo‘lda tarixiy qadamlar tashlandi. Kuchli ijtimoiy siyosat aholi turmush darajasini yuksaltirish, daromad va yashash tarzida keskin tafovutlar, tengsizlikning oldini olish, har bir inson davlatning e‘tibori va g‘amxo‘rligidan chetda qolmasligini kafolatlash maqsadlarini izchil ro‘yobga chiqarmoqda. Ijtimoiy himoya masalasiga jamiyatda barqarorlik va adolatni ta‘minlashning muhim asosi deb qaralmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan ijtimoiy davlat tamoyili hayotda ro‘yobga chiqarmoqda.

Davomi 2-betda



Yuksalish pallasasi

GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI

barqaror taraqqiyot omili



Ulug'bek INOYATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston XDP fraksiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy himoya bo'yicha erishilayotgan natijalar buni tasdiqlaydi. Qiyoslasak, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o'zgarishlar, yangilanishlar nafaqat qarorlar va dasturlarda, balki oilalar turmushida aks etayotganiga amin bo'lamiz. Yig'ilishda qayd etilganidek, mahalladagi ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, shu yil reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko'rsatdi. Bir necha o'n minglab yurtodshimizga nogironlik belgilangani, protez berilgani, nogironligi bor bolalarning bog'cha, maktabga joylashtirilgani — bu raqamlar oddiy raqamlar emas, ular ortida qanchadan qancha hamyurtimizning rozirizoligi masalasi bor.

Eng muhimi, bu raqamlar, belgilangan yangi vazifalar ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlab, yurtimizning inklyuziv jamiyatga aylanishiga mustahkam asos yaratmoqda.

Uch oy oldin viloyat va tumandagi 14 ming rahbar 75 ming kambag'al oilaga birlashtirilib, ular bilan individual ishlash

yo'lga qo'yildi. Natijada shu kunga qadar kambag'al oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomorqa orqali 14 ming kishining daromadi oshirildi, 30 ming bola bog'cha, to'garak va kasbga o'qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj fuqaroga tibbiy yordam ko'rsatildi.

Bu juda katta va tarixiy ahamiyatga ega natijalar deb o'ylayman. Bunga erishilgani mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarali amalga oshirilayotganini anglatadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi salmoqli o'zgarishlar haqida so'z yuritganda, kambag'allik darajasini qisqartirish chora-tadbirlari haqida to'xtalib o'tish joiz, albatta.

tashabbus ilgari surildi. Kelgusi yilda 1 million 200 ming kishini kambag'allikdan chiqarish uchun ta'lim, to'garak, kasbhunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va

**“PREZIDENTIMIZ BUTUN DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TIZIMI IMKONIYATLARINI MANA SHU EZGU MAQSADGA KATTA KUCH HAMDA ISHTIYOQ BILAN SAFARBAR ETMOQDA. BU TAMOYIL NAFAQAT JOYLARDAGI IJTIMOIY MUAMMOLARNI TIZIMLI HAL ETISH, ENG ASOSIYSI, HUQUQ VA IMKONIYATLAR TENGLIGIGA REAL SHAROIT YARATISHGA XIZMAT QILADI.”**



Respublikamizda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati ta'minlanishi kambag'allik darajasini 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqartirishga imkon yaratdi. 2025-yil yakuni bilan kambag'allikni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilindi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari bu masalaga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu yil ijtimoiy himoya bo'yicha 34 ta muhim yangilikka qo'shimcha 28 ta yangi

yashash sharoitini yaxshilash zarurligi ta'kidlandi.

Kambag'allikka tushib qolish xavfi mavjud qatlam — yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslarni ko'lab-quvvatlash bo'yicha yangi vazifalar belgilandi.

Xususan, kambag'al oila farzandlarini chet tili, IT va kasb-hunarga o'qitish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. Mutasaddilarga kelgusi yil 1-martgacha to'garaklar ochib, kambag'al

oilalardagi 118 ming yoshni o'qitishni boshlash topshirildi. Kambag'al oilalar farzandlarini tayyorlab, 2025-yilda 3,5 ming yoshni oliygohga grant asosida qabul qilish zarurligi qayd etildi.

Oson bo'lmagan, qat'iy qo'yilgan vazifalar nafaqat shu kunlarga, xalqimiz kelajagiga qaratilganini yaxshiroq tushunish uchun murakkab vaziyatdan chiqib ketayotgan oiladagi muhiti, kayfiyatni yaqindan bilish yetarli bo'ladi. Yillar mobaynida tayinli bir yumush tutib, ro'zg'origa yaxshi qaray olmagan ota-onaning o'z ishini yo'lga qo'yayotgani, daromad ko'rayotganida qancha ibrat va shukronalik bor!

Xalq vakillari bu islohotlarni to'la ko'llab-quvvatlagan holda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ehtiyojmandlarni ko'llab-quvvatlash jarayonlariga kamarbasta bo'lishga qattiq kirishadi.

Prezidentimiz butun davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi imkoniyatlarini mana shu ezgu maqsadga katta kuch hamda ishtiyoq bilan safarbar etmoqda. Bu tamoyil nafaqat joylardagi ijtimoiy muammolarni tizimli hal etish, eng asosiy, huquq va imkoniyatlar tengligiga real sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro'yxati 18 tadan 30 taga, mablag'i esa 1,5 barobar oshirilgani, buning evaziga yil boshidan 100 ming odamning ehtiyoji ta'minlangani alohida qayd etildi. Endi ro'yxatga yana 7 turdagi vosita qo'shilishi belgilandi. Ochiq'iz, ushbu yo'nalishdagi imkoniyat va imtiyozlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, nogironligi bor shaxslar jamiyatimizning to'laqonli a'zosi sifatida katta ishonch va umid bilan yashashi yo'lida qilinayotgan ishlarning qamrovi keng.

Yig'ilishda belgilab berilgan vazifalardan ma'mul bo'ladiki, mamlakatimizda ijtimoiy sohaning barcha yo'nalishlarida shaxdam o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Har bir quvonchli o'zgarish, yangilik esa minglab, millionlab odamlarning ruhiyatini ko'taradi, yuksalishga ilhomlantiradi.

Boshlanishi 1-betda

Bundan tashqari, huquqiy va psixologik ko'makka muhtojlarga amaliy yordam berildi. Jumladan, tug'ilganlik haqida guvohnoma yoki fuqarolik pasporti olish uchun ko'maklashildi, aliment to'lovlarini undirib berildi. Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha oilalarga yer maydonini sug'orish, issiqxonaga qurish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratildi. "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlardan 150 nafarining farzandlariga, shuningdek, oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan 388 xotin-qizga kontrakt to'lovining muayyan qismi to'lab berildi. Albatta, bu imkoniyatlar opa-singillarimizning og'irini

tadbirlar ko'pchilikka manzur bo'ldi. Bu jarayonda ayollarni ishga va tadbirkorlikka jalb etish, kasbhunarga yo'naltirishga e'tibor qaratildi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday muammolarga qarshi kurashishda faqat jabrdiydalar bilan ishlashning o'zi kifoya qilmaydi. Zo'ravonlikni sodir etayotgan shaxslarni ham bu tadbirlarga jalb etish, ularning ruhiy va salomatlik holatini o'rganish, hayotiy muammolarini aniqlab, hal etishga ko'maklashish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda joylardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, ichki ishlar xodimlari hamda psixologlar hamkorligida ana shunday holatlarni

**“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari psixologlari hamda huquqshunoslari bilan birgalikda talabalar o'rtasida o'tkazilgan ochiq muloqotlar, davra suhbatlari ham yoshlarning huquqiy bilim va dunyoqarashini oshirish, gender tenglikni targ'ib etishda muhim qadam bo'ldi.**

yengil qilish, muammolariga yechim va hayotda o'z o'rmini topishida katta turtki bo'lmoqda.

Jamiyatda gender tenglikni ta'minlash va farovon hayot barpo etishga to'siq bo'layotgan yana bir muammo — zo'ravonlik holatlariga qarshi kurashish doimiy e'tiborda. Yaqinda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan o'tkazilgan "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun faollik" tadbirlari jamiyatimizda zo'ravonlik muammolariga e'tiborni yanada kuchaytirish hamda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'ldi. Uning doirasida "Farovon oila" shiori ostida joylarda ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Zo'ravonlikdan jabr ko'rib, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tizimidagi vaqtincha boshpanalarda yashayotgan ayollar va ularning farzandlari, mahallalardagi notinch oilalar, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar hamda farzandlari ishtirokida o'tkazilgan

sodir etgan shaxslar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar, uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etilyapti.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari psixologlari hamda huquqshunoslari bilan birgalikda talabalar o'rtasida o'tkazilgan ochiq muloqotlar, davra suhbatlari ham yoshlarning huquqiy bilim va dunyoqarashini oshirish, gender tenglikni targ'ib etishda muhim qadam bo'ldi.

Bunday loyihalar esa opa-singillarimizning hayoti va turmush farovonligini oshirish, oila va jamiyatda o'rinni mustahkamlash, turli sohalarida yutuq va muvaffaqiyatini yuksaltirishga zamin bo'layotgani quvonarli. Yuqoridagi ayitib o'tganimizdek, mamlakatimizning Gender tenglik va boshqaruvi indeksi (GEGI)dagi o'rni 51 o'ringa yaxshilanganini barchimizga faxr-iftixor baxsh etdi.

**Bahor XIDIROVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar



Alisher HOTAMOV, Chilonzor tumani hokimi o'rinbosari

Jumladan, endi hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Turli sohalarida nazoratni ta'minlovchi davlat inspeksiyalari bilan quyi palata qo'mitalari o'rtasida hamkorlik tizimi yaratiladi. Bu, o'z navbatida, ularning hisobotlarini qo'mitalarda muhokama qilib borishda yangi, ta'sirchan tizimga asos bo'ladi. Natijada parlament nazorati samaradorligi oshadi.

Bu kabi islohotlar yurtodsharimiz hayotida katta o'zgarish yashashga ishonaman. Chunki mamlakatimizda kechayotgan islohotlarni chuqur o'rgansangiz, puxta reja asosida bosqichma-bosqich ekanini ko'rasiz. Xususan, hokimlarning ko'plab vakolati kengashlarga o'tkazilishi haqida bir muddat avval reja qilingan edi. Ammo bunga birdaniga o'tmadik. Xususan, bu yil hokimlarning 33 ta vakolati kengashlarga olib berildi. Kelgusida ularning yana 17 tasini o'tkazish nazarda tutilmoqda. Nega bu amaliyot birdaniga

**XALQ DARDI BILAN YASHASH KUNDALIK SHIORGA AYLANISHI SHART**

Prezidentimizning o'tgan oyda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi majlislaridagi nutqida mamlakatimizdagi islohotlar yangi bosqichga chiqayotgani e'tirof etildi. Ayni paytda uni amalga oshirish bilan bog'liq ko'plab vazifalar belgilab olindi.

hayotga tatbiq etilmaydi? Zero, har ikki tomon bunga moslashishi, ko'nikishi kerak. Mazkur jarayon ham qaysidir ma'noda ijtimoiy davlatning mas'uliyatini avval amalda his etib, mazkur yo'nalishda katta islohotlar boshlangach, Bosh qonunimizda mustahkamlab qo'yilganiga o'xshaydi.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini o'z aksini topgani tarixiy voqelik bo'lgandi. Negaki ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi, adolat to'la-to'kis qaror topadi. Buni o'tgan qisqa vaqtgacha o'zgarishlarda ko'rib turibmiz. Oddiy misol, ijtimoiy yordam ko'rsatishdan tortib, tadbirkorlikka keng yo'l ochishgacha bo'lgan juda ko'p masalalar mahallaning o'zida hal etiladigan tizim yaratildi. Mazkur amaliyot tom ma'noda xalqimizning og'irini yengil qilib, ertangi kunga ishonchini oshirmoqda. Shu o'rinda ish faoliyatini davomida ayni masalalar bo'yicha bevosita o'zim ishtirokchi bo'lgan ayrim hayotiy voqealarga to'xtalib o'tmoqchiman.

Toshkent shahrining Chilonzor tumanida 55 ta mahalla bor. Tumanimizda turli toifadagi insonlar yashaydi. Shunday sharoitda barchaga birdek imkoniyat yaratib berish, xalqimizni rozi qilish oson emas. Ammo biz, mas'ullar ishini oson qiladigan jihat shundaki, qonuniy asos yaratilgan.

Masalan, hali yoshi 40 ga ham yetmagan ayol voyaga yetmagan uch farzandi bilan yolg'iz yashaydi. Turmush o'rtog'i jazo o'tayapti. Bunday vaziyatda ayol nafaqat iqtisodiy, balki ruhiy jihatdan ham

qiyinchilikni boshdan o'tkazadi. Jamiyatda yakkalanib, o'z dardi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Ammo yurtimizdagi islohotlar sabab ushbu fuqaroning hayoti o'zgaradi. U yashaydigan mahallaning ijtimoiy xizmat xodimi uning vaziyatini o'rganib, ayolga ko'mak kerakligini bildirdi. Natijada unga birinchi o'rinda psixologik yordam berildi. Shu vaqtgacha tajribamizda psixologik yordam tushunchasi bo'lmagan. Birgina psixologik yordamning o'zi gahida barcha muammolarga yechim ekaniga bugun guvoh bo'lyapmiz. Shu orqali bu ayolning hayoti o'zgaradi.

Ya'ni fuqaroning farzandlarini bog'cha va to'garaklarga joylashtirishga ko'maklashdik. Layohatidan kelib chiqib o'zining bandligi ta'minlandi. Ko'rinishi va aytilishidan juda oddiy bo'lishi mumkin, lekin mana shu kichik bir e'tibor, qo'llov bilan bir fuqaroning hayoti izzat tushdi, ertangi kunga ishonchi ortdi.

Mana shunday kezlarda jamiyatimizda ertangi kunga ishonch ortib borayotganidan xursand bo'laman. Chunki agar odamda ishonch mustahkam bo'lsa, har qanday qiyin vaziyatda ham yengilmaydi, ortga chekinmaydi, aksincha, hayotsevarligi oshadi, faqat oldinga intiladi.

Bunga ko'plab oilalar hayotini misol qilish mumkin. Hududimizda yolg'iz keksalar ham bor va bu tabiiy, albatta. Keksalar er-xotin Anatoliy va Nina yolg'iz yashaydi. Ularning farzandi yo'q. Keksalar ayol og'ir xastalikka yo'liqqani sabab o'zini keksalar uyiga joylashtirish uchun amaliy yordam so'ragan. Ijtimoiy himoya



milliy agentligi xodimlari oilaning ahvolini atroflicha o'rgandi. Keksalar ayolni davolash choralarini ko'rdi. Ularga doimiy qarash uchun ijtimoiy xodim ajratildi. Shu tariqa bir oila, keksa er-xotin o'z uyida barcha kerakli yordamni olish imkoniga ega bo'ldi. O'sha paytda ularning ko'zidagi quvonchni bir ko'rsangiz edi, buni so'z bilan tasvirlab berish qiyin. Mamlakatimizda keyingi yillarda kechayotgan islohotlar mana shunday insonparvarligi, yurtodsharimiz hayotida o'chmas iz qoldirib, yangicha mazmun olib kirayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, ijtimoiy adolatning qaror topishi barcha sohalarida o'sishga olib keladi. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini yaratish sari dadil bormoqda. Bunga kuchli, bilimli, ertangi kuniga mustahkam ishongan xalq bilangina erishish mumkin. Shu bois, yangi islohotlar davrining ilk yillaridayoq "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"

misolida ijtimoiy xizmatlarning yangi davri boshlangan edi.

O'tgan davrda juda katta marralar zabt etildi. Muhimi, kambag'allik rasman ta'lim o'zini yo'qotgan bo'ldi. Masalan, to'rt yil avval 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga ham yetmagan. O'tgan davrda 3,5 million fuqaro uchun daromad olish imkoniyatini yaratildi. Natijada kambag'allik ko'rsatkichi 11 foizga tushirildi. Kelgusi uch yilda uni 7 foizga tushirish reja qilingan. Buni amalga oshirish uchun aniq hisob-kitoblarga tayangan puxta reja ishlab chiqilgani quvonarli, albatta.

Birgina misol, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturiga ko'ra, 2025-yilda 1 million aholi kambag'allikdan chiqariladi. Bu

maqsadlarga 46,5 trillion so'm yo'naltiriladi. Bundan tashqari, 100 ming gektar yer dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil etish uchun 200 ming kambag'al oilaga ijaraga beriladi.

Yana bir muhim raqam, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida kelgusi yili budjetdan 500 milliard so'm ajratiladigan bo'ldi. Yangi yildan 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam, 50 ga yaqin imtiyozni o'zida mujassam etadigan yagona "ijtimoiy karta" tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu ham ko'plab oilalarning muammosiga yechim bo'ladi. Ya'ni bir oila har bir yordam uchun alohida murojaat bilan chiqib vaqtini bekor ketkazmaydi. "Ijtimoiy karta" orqali barcha muammolarini o'z vaqtida hal etib ketaveradi.

Bu maqsadlarga erishish uchun barcha darajadagi mas'ullar islohotlarni teran anglagan holda jonkuyarlik, vatanparvarlik bilan ishlashi shart. Maqolamiz avvalida yozganimizdek, islohotlar yangi bosqichga chiqmoqda. Bunday keng ko'lamdagi o'zgarishlar davrida barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, ayniqsa, xalqning ishonchli vakillari ijro organlari bilan birdamlikda olg'a intilishi davr talabi.

O'rni kelganda aytilish kerak, odatda vakolatning kamayishi mas'uliyatni yengillashiradi. Ammo hokimlarning ayrim vakolatlari kengashlarga berilishi ijro organlari zimmasidagi mas'uliyatni ikki hissa oshiradi. Xalq dardida yashab, halovatini yo'qotgan shaxs jamiyatda katta o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi. Bunga o'tgan qisqa davrda barchamiz guvoh bo'ldik.

Demak, xalq dardi bilan yashash yangi O'zbekistondagi har bir mas'ulning oliy ish mezonini kundalik shioriga aylantirishi shart. Zero, xalqimizning orzulari amalga oshayotgan tub islohotlar davrida barcha toifadagi mas'ullar mas'uliyatini teran his etib, loqaydlikka yo'l qo'ymay ishlasa, ko'zlangan marralarga mo'ljaladigan ham oldin erishamiz. Buning uchun mamlakatimizning salohiyati yetarli. Faqat biz, mas'ullar bir tan bo'lib, kadrlar salohiyatini namoyon eta olsak bas.



## Eko tafakkur

## IQTISODIY

## MASALALARNING

ekologik  
yechimiBoboravshan G'oziddinov,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda qish nimaligini bilmaydigan issiq mamlakatlarda qor yog'ishi, sel kelishi odatiy holga aylanib boryapti. Shuning o'ziyoq tabiatda jiddiy o'zgarishlar bo'layotganidan dalolat. Ana shunday vaziyatda atrof-muhitni asliday asrash muhim... Yo'q, shunchaki muhim emas, balki hayot-mamot masalasidir!

Zero, atrof-muhit masalasi dunyo ahli oldiga iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Ilmiy taxminlar tabiatdagi salbiy o'zgarishlar avvalo suv tanqisligiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. Afsuski, jamiyatimiz suv isrofi qanchalik dahshatli oqibatlar keltirishini to'la anglab yetgani yo'q. Bu haqda keyinroq to'xtalamiz.

Ekologik masalalar oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki tabiatda muvozanat o'zgarishi, nafaqat havo, balki tuproq ham zararlanadi. Hosildorlik kamayib, ayrim joylarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari zahar, kasallik tarqatuvchi bo'lib qolishi hech gap emas. Bunday ayanchli oqibatlar esa zararkundalar ko'payishidan boshlanadi. Biz ularga qarshi dori sepamiz. So'ng nafaqat hosil, balki tuproq ham zaharga to'yinib boraveradi.

Oxir-oqibat iqtisodiy o'sish chekina boshlaydi. Birinchidan, jamiyatda sog'lig'idan shikoyat qiladigan odamlar ko'payadi. Bu o'z-o'zidan oilalar davolanish uchun ko'p mablag' sarflashiga olib keladi. Sog'lom bo'lmagan shaxsning mehnat unumdorligi kamayadi. Ikkinchidan, tabiiy toza mahsulotlar, suv kabi boshqa resurslar tanqisligi kuzatiladi. Bu sanalagan barcha muammolarning yanada avj olishiga sabab bo'ladi. Oqibatda dunyoda yoqadan olishlar, tabiiy resurslarga yakka egalik qilishga urinishlar ko'payib, dahshatli urushlar kelib chiqadi.

Darhaqiqat, bugun behuda oqizayotganimiz bir tomchi suv, tuproq bag'riga beparvorlaricha otib yuborayotganimiz chirimaydigan, zararli chiqindilar, bepisandlik bilan kesilayotgan daraxtlar — barcha-barchasi yuqorida sanaganimiz ulkan muammolarga qo'yiladigan ilk qadamdir. Ha, atrof-muhitni asrash shu darajada muhim. Yil nomining avvalgi qismi — atrof-muhitni himoya qilish mana shunday katta hayotiy haqiqatlarni o'zida jamlagan. Shu bois, tabiatni asrash, avvalo, insonni asrash demak!

Iqtisodiy o'sish  
ekologik muammolarga  
eshik ochmasligi kerak

Endi "yashil" iqtisodiyotning ahamiyati haqida fikrlashsak. Avvalo, iqtisodiyotimizdagi quvonarli raqamlar, keyingi yillardagi tub o'zgarishlarni bir qur yodga olsak. Qisqa muddatda iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marrani zabt etdi. Aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetdi. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiyotda nihoyatda katta o'sish, degani. Buni xalqaro ekspertlar ham tan olyapti. Masalan, Jahon banki 2024-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e'tirof etdi. Yana bir ijobiy ko'rsatkich, kambag'allik darajasi so'nggi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi. Islohotlar izchilligi evaziga bu ko'rsatkichni 9 foizga tushirishni maqsad qilganmiz. Xo'sh, bunday marralarga qanday erishildi?

Albatta, tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali. Mana shu javob zamirida ko'plab sohalardagi katta mehnat, tub islohotlar, milliardlab mablag' yotibdi. Biz hozir iqtisodiy o'sishni birma-bir tahlil etishdan yiroqmi. Ammo bir haqiqatni aytilish zarur, iqtisodiyot barqarorlashib borishi bilan tabiatga yetkaziladigan zarar ham ko'payadi. Ya'ni mahsulotni ishlab chiqarib, uni bozorga yetkazishgacha bo'lgan jarayon energiya talab qiladi. Avvalo, zamonaviy texnologiyalar elektr energiyasi bilan ishlaydi. Elektrni ishlab chiqarish uchun odatda neft, gaz va ko'mir yoqiladi. Ularning zararini o'ziga ta'riflash shart emas, nazarimda. Qolaversa, ishlab chiqarish qancha ko'paysa, transportga ehtiyoj shuncha ortadi. Bu mashinalardan chiqadigan zararli gaz hajmi ortishini anglatadi. Bularning barchasi tabiatga yetkaziladigan zarar, degani.

Bir vaqtlar Yevropada sanoat ishlab chiqarishi ortib, tabiatga katta zarar yetkazila boshlangan edi. O'shanda tabiatsevarlar birlashib, umumiy harakatga aylandi. Ular keyinchalik turli davlatlarda "yashil"lar partiyasini tashkil etdi. "Yashil"lar harakati tabiatga zararni kamaytirish borasida o'z dasturlarini, chiqishlarini taqdim etib keladi. Yangi O'zbekistonda tub islohotlar boshlanishi fonida "yashil"lar partiyasi vujudga kelishi bejiz emas. Bu ham texnik taraqqiyot asrida yurtimizda tabiatni asrashga davlat siyosati darajasida jiddiy qaralayotganini ko'rsatadi.

Yana bir jihat. Iqtisodiyot rivoji, demak, xalq farovonligi uchun korxonalar ko'payishi kerak. Iqtisodiy tarmoqlar oz bo'lsa ham tabiatga zarar yetkazadi. Ayni paytda inson sog'lom, to'kis hayot kechirishi uchun tabiatni asliday asrash shart. Mana shu ziddiyatni muvozanatda saqlash uchun XXI asrda yechim topildi. Bu "yashil" iqtisodiyot!

Hozir O'zbekiston aholisi 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda bu ko'rsatkich 40 milliondan ortishi kutilyapti. Demografik o'sish inson kapitali, katta imkoniyat, degani. Ammo inson kapitali yuksalishi uchun tabiatga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishga erishish kerak. Demochimizki, ko'zlagan ulkan marralarni zabt etishimiz uchun xalqimizning ekologiya, energetika, transport, yo'l, ichimlik suv ta'minoti, aholini uy-joy bilan ta'minlash kabi muhim sohalarda talab va ehtiyojlari qondirib borilishi zarur. Bularning hech birini energetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yurtimizda "yashil" iqtisodiyotga jiddiy e'tibor berilayotgani bejiz emas. Zero, tabiatga zarar bema'diyagan energiyaga ega bo'lish, ta'bir joiz bo'lsa, kelajak kafolatidir. Shu ma'noda, "yashil" iqtisodiyotga davlat siyosati darajasida e'tibor berilishi kelajak kafolatini mustahkamlaydi.

Keyingi yillarda yurtimizda energetika sohasi jadal isloh qilinmoqda. Muhimi, energiya bozori liberalashtirilmoqda. Oddiy misol, uyingizga quyosh paneli o'rnatib, ortiqcha energiyani sotishingiz mumkin. Vaholanki, o'n yil avval buni tasavvur qilib bo'lmadik. Bu energiya mustaqilligi uchun tashlangan muhim qadam. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hamda uni tejoychi texnologiyalarni joriy etish borasidagi ishlar izchil davom etyapti. Mazkur yo'nalishda ham keyingi yillarda sezilarli o'sish kuzatildi. Masalan, hozir yurtimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 15 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to'g'ri keladi. 2030-yilga qadar mazkur ko'rsatkich 40 foizga yetkazilishi kutilmoqda. Ya'ni kelgusida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektrning deyarli yarmi "yashil" bo'ladi. Bu O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati 27 gigavattga yetadi, degani.

Albatta, maqsad qanchalik ezgu bo'lmasin, unga erishish oson kechmaydi. Bosqichma-bosqich, aniq rejalar orqali erishish mumkin. Bunga esa yangi O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar boshlangan vaqtdayoq ilk qadamlar qo'yilgan edi. Masalan, to'lovlarini kafolatlash uchun tabiiy gaz va elektr energiyasini onlayn rejimda hisoblash tizimi yaratildi. Bu izdan chiqqan to'lov tizimini tartibga soldi. Sohaga milliardlab mablag' yo'naltirish imkoniyatini berdi. Shuning o'ziyoq katta bir tahlilga arziydigan mavzu.

“Yana bir jihat. Iqtisodiyot rivoji, demak, xalq farovonligi uchun korxonalar ko'payishi kerak. Iqtisodiy tarmoqlar oz bo'lsa ham tabiatga zarar yetkazadi. Ayni paytda inson sog'lom, to'kis hayot kechirishi uchun tabiatni asliday asrash shart. Mana shu ziddiyatni muvozanatda saqlash uchun XXI asrda yechim topildi. Bu "yashil" iqtisodiyot!”



Natijada uzoq yillardan buyon e'tibordan chekda qolgan tarmoqlar yangilandi. Sohada zamonaviy texnologiyalar joriy etila boshlandi. Elektr uzatish stansiyalari ta'mirlandi. Bu ko'lamni oshirib borish uchun ehtiyoj qismlarni o'zimizda xalq chiqarishga ham katta e'tibor berildi. Xususan, 2017-yilda "Nukus Electroapparat" qo'shma korxonasi ishga tushdi. Har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. Jumladan, bu yil oxiriga qadar tarmoqqa qo'shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari ulanadi. Bu ekologiyaga zarar keltirmasdan iqtisodiy o'sishga erishishda juda muhim.



Ekologiya, "yashil" energiyadan keng foydalanish faqat ichki ehtiyojimizdan iborat emas. Demochimizki, dunyo mamlakatlari bu borada yakdil bo'lishi, masalalarga hamkorlikda yechim topishi zarur. Shu bois, O'zbekiston doim xalqaro maydonda ekologik masalalar haqida bong urmoqda. Amaliy ishlar borasida aniq takliflarni ilgari suryapti. Masalan, Boku shahrida BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP 29) doirasida davlatimiz rahbari tomonidan qator taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Ular xalqaro jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Muhimi, ushbu konferensiyada amaliy kelishuvlarga erishildi. Xususan, O'zbekiston, Qozog'iston va Ozarbayjon o'rtasida "yashil" energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolandi. Ushbu loyiha ekologik ahamiyati juda muhim. Zero, loyiha doirasida uzatiladigan energiya shamol va quyoshdan olinadi. Qayta tiklanadigan manbadan olinadigan ushbu energiya iqlimga ta'siri yumshatadi.

Umuman, yangi O'zbekiston ekologik masalalarga yechim izlash, bu borada amaliy ishlarini bajarish barobarida iqtisodiy taraqqiyot sari dadil odimlammoqda. Bunga "Yashil makon" loyihasini ham misol qilish mumkin. Joriy yil 23-noyabr kuni davlatimiz rahbari Toshkent shahri atrofida "yashil belbog'" barpo etish loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirida ishtirok etdi. Shu tariqa Bektemir tumanida, Toshkent halqa yo'li bo'yida yashil hududga asos solindi. Buning uchun 100 gektar yer ajratilgan. Unga ikki yilda jami 100 ming tup daraxt va buta ko'chati ekiladi. Maqsadimiz "Yashil makon" loyihasi asosida megapolisga aylanib borayotgan shahrimizning yashillik darajasini 30 foizga yetkazishdir. E'tiborsiz, o'sha kuni mamlakatimizning barcha hududlari — Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda ham ko'chatlar ekildi. Ushbu kuzgi mavsumda "Yashil makon" loyihasi doirasida 80 million tup daraxt va buta ko'chati ekish reja qilingan. Muhim raqam, oxirgi 3 yilda mamlakatimiz bo'yicha jami 646 million tup ko'chat va buta ekilgan. Orolbo'yida yashil qoplama 2 million gektardan oshgan. U bugun sahrada yashil hayot boshlab berdi. Ammo boshqa hududlarga ekilgan ko'chatlar-chi? Afsuski, ayrim joylarda qarovsizligi bois, ular qurib qolgan haqida ma'lumotlar bor. Ya'ni ko'chatlarni parvarish qilishda loqaydikka yo'l qo'yilgan. Mas'ullar ko'chatlarni sug'orish, kasalliklarning oldini olish borasidagi ishlariga yetarlicha e'tibor

qaratmagan. Boz ustiga, o'tgan yillarda ko'chat ekishda qo'shib yozishlar ham kuzatilgan. Demak, ekologik masalalarni hal etishda, xususan, ekomadaniyatimizni oshirishda ham talaygina ishlarimiz bor.

Yuqorida atrof-muhitni asrashning ahamiyati, "yashil" iqtisodiyotning zamonamiz uchun muhimligi haqida imkon qadar fikrlashdik. Endi ushbu ishlarini amalga oshirishda bevosita kuch va qudratimiz bo'lgan inson kapitali, jamiyatimizning ekologik madaniyati haqida mulohaza yuritassak.

Suvga chiqindi tashlashdan  
nega qo'rqar edik?

Davlatimiz rahbari "Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi", degan edi. Ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali biz mana shu ikki ustunni ham mustahkamlashga erishamiz. Bu balandparvoz gap emas. Keling, buni soddaroq tushuntirishga urinaylik. Bolaligimda suv Xudoning yuzi, degan gap bo'lardi. Biz bir qarich jujuqlar, masalan, suvga nimadir otib yuborsak, tengdoshlarimiz malomat qilardi: "Esing joyidami, suv Xudoning yuzi-kul!".



Shu sabab biz suvga chiqindi tashlashdan tiylardik. Ha, ekologik madaniyatimiz murg'aklikdan boshlanardi. Afsuski, bugun suvga duch kelgan narsani ulotqiryapmiz. Tuproq, yashillik olami va hayvonot dunyosiga ham xuddi shunday munosabatdamiz. Ya'ni biz ekologik madaniyatdan ancha olisladik. Hozir buning sabablarini birma-bir sanab vaqtigizni olmoqchi emasmiz. Shahar ko'chalarida, biz hordiq oladigan tabiat qo'ynida sochilib yotgan chiqindilar ekologik madaniyatimizga tutilgan oyina. Afsuski, jamiyatimizda chiqindini belgilangan joyigina tashlashday juda oddiy odob shakllanmagan.

Shu o'rinda ko'nglingizda tug'ilishi mumkin bo'lgan bitta savolga javob berishimiz kerak. Ehtimol, kimdir nega tadbirkorlar, sanoat suvini, zararli gazlarni yetarlicha tozalamay,

tabiat bag'riga tashlayotgan korxonalar emas, oddiy odamlar yoki omma aybdor qilinmoqda, deyishi mumkin. To'g'ri, tabiatga katta miqdorda zarar keltirishi mumkin bo'lgan subyektlarni jiddiy nazorat qilish shart. Buning uchun yurtimizda qonuniy asos ham bor.

Gap shundaki, biz ijtimoiy, demokratik davlatda yashaymiz. Bunday mamlakatda jamoatchilik nazorati masalalarga eng yaxshi yechim bo'ladi. Agar jamiyatimizda ekologik madaniyat shakllansa, hatto bog'chaga boradigan bola ham suvni Xudoning yuzidagi aziz deb bilsa, katta korxonalar chiqaradigan zararlar ham keskin kamayadi. Negaki o'sha tadbirkor, yirik korxonra rahbari va ularni nazorat qiladiganlar ham bevosita mana shu jamiyat mahsulati, uning ajralmas qismidir. Qolaversa, yuksak ekologik madaniyatga ega jamoatchilik mavjud qonunlar amalda ishlashini ta'minlaydigan yagona kuch. Masalan, yaqin-yaqinlarda daraxtlarni bemalol kesaverish mumkin edi. Jamoatchilik nazorati ishlashi evaziga bunga qarshi kurash jiddiy tus oldi. Hozir ham daraxtkesarlar topiladi. Ular o'z maqsadiga erishishda har qanday hiyla yo'lini izlab topmoqda. Qachonki ular bunday qilmishdan uyaladigan, vijdoni oldida javob berishni o'ylaydigan darajaga yetsagina, biz haqiqiy ekologik madaniyatga erishamiz. Buning eng samarali usuli jamiyatning o'zgarishidir. Axir yangi O'zbekistonda yoshlar ongu tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlariga hurmat hissini kamol topirishga jiddiy e'tibor berilayotgani bejiz emas.

Ekologik madaniyat ma'naviy ustuning mustahkamligidan dalolat. Bir misolni eslasak. Qadim zamonlar yashagan Samud qavmi haqida gap ketganida ularning qalbiga zalolat muhri urilgani aytiladi. Zalolat muhri ma'naviyatimiz, ma'rifatdan butunlay uzoq kimsaning qiyofasiga eng qisqa va aniq berilgan izohdir. Ana shunday qiyofadagi Samud qavmi jismonan baquvvat, tog'toshini yo'nib mustahkam uy qilgan odamlar edi. Bu ularning iqtisodiy jihatdan to'kis bo'lganini ko'rsatadi. Ammo bu qavmda ma'rifat yo'q edi. Shu bois, ularga sinov yuborildi. Ya'ni qavm mo'jiza sabab ulkan tosh ichidan chiqqan tuyani hurmat qilishi kerak. Ular yashaydigan joydagi yagona ko'lning suvidan bir kun tuya, bir kun qabila ahli ichishiga ruxsat beriladi. Ular tuyaga zarar yetkazmasligi ham shart edi. Ko'ryapsizmi, o'zligini unutgan jamiyat bitta tuya — tabiatning kichik zarrasi bilan murosqa qilishga majbur etiladi! Chunki inson ham tabiat oldida o'sha tuya kabi kichik bir tirik jon, xolos.

Ammo ular ma'rifatdan uzoq, ma'naviy ildizi mo'trab qabul edi. Shu bois, shart buziladi. Oqibatda Samud qavmi osmondan kelgan balo — tabiiy ofat sabab yo'qlikka yuz tutadi. Agar ularning ma'naviy ustuni, ekologik madaniyati



Tahlil



Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Poyezd to'xtaydi. Subhatdoshim menga bir qarab qo'ydi-da, yakunlanmagan gurgundan xijolat bo'lgandek bozorlik xaltasini ko'tarib eshikka odimlaydi.

Men esa uning tugallanmagan gapi haqida, Maqsum bobo ko'rgan yillar haqida o'ylay boshlayman. Uning biz sanoqli soniyalarda bosib o'tayotgan hududda piyoda yurganini ko'z oldimga keltiraman. Birgina u emas, qanchalab yurtdoshlarimiz umri shu yo'llarda o'tgandir. Shularni o'ylar ekanman, tanish ovoz yana sas beradi: "Yangihayot" bekati...

O'z uying — o'lan to'shaging

Inson qadri ulug' tushuncha. U o'tmishdan xulosa chiqarib, kelajakka poydevor tashlar ekan, o'z hayotidan mamnun bo'lib yashashi kerak. Bu esa iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarga bog'liq. Har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, inson zotiga munosib go'zal turmush barpo etish yuqoridagi omillarning hayotga ko'chishi bilan amalga oshadi.

Bugun odamlarning og'irini yengil qilish, ularning hayotidan rozi yashashi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar har bir jabhada bo'y ko'rsatmoqda. Birgina 2017-yildan bugungi kunga qadar 400 mingga yaqin xonadonli 8 mingga ko'p qavatli uy barpo etilgan. Bu raqamlar ortidan nafaqat uy-joy muammosi hal bo'lmoqda, balki aholi bandligi ham ta'minlanayotir. Shuningdek, qurilishlar ortidan katta mavzalar, mahallalar, zamonaviy ijtimoiy inshootlar paydo bo'ldi. Ular odamlarning sevimli maskaniga, o'bod manzilga aylanmoqda. Birgina Yangihayot tumani so'zimizga misol bo'ladi.

Prezidentimiz Yangihayot tumaniga tashrif chog'ida bunga alohida urg'u berdi: "Bugun kelishimizdan maqsad — qabul qilayotgan qarorlarimiz natijasini, odamlar hayotini ko'rish. Xuddi bu tumandagiday har bir hududni rivojlantirish, odamlarga qulayliklarni va ish joylarini ko'paytirishga harakat qilaymiz. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiyaga, madaniyatga katta e'tibor qarataymiz. Bilim va ma'naviyat mustahkam bo'lsa, iqtisodiyot ham yaxshi rivojlanadi".

Yangihayot qisqa vaqt ichida aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim va ko'plab sohalarida boshqa tumanlarga ibrat bo'larli natijaga erishmoqda.

— Rudakiyning bir ajoyib gapi bor: "Baxt havoda esmaydi, mehnatdan keladi". Mehnat farovon jamiyatning kalitidir. O'z vaqtda aqlga tayangan, odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilgan har qanday mehnat mevasini beradi. Buni birgina Yangihayot tumani misolida ko'rishimiz mumkin, — deydi tuman hokimi Hayot Inog'omov. — Qisqa vaqt ichida qator jabhalarda natijadorlikka erishilmoqda. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olish 2021-yil holatiga 37,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 74,6 foizga yetdi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida ham yutuqlarimiz talaygina. Jumladan, tumanimizda birinchilardan bo'lib bemorlarni onlayn ro'yxatga olish tizimi joriy etilgan.



YANGIHAYOT: industrial salohiyat JAHONGA YUZ TUTMOQDA



2021-yilda 250 qatnoga mo'ljallangan 2 ta oilaviy poliklinika hamda 2022-yilda 1 ta tez tibbiy yordam stansiyasi qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Bugungi kunda tumanda 184 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. 2021-yil tumanda ishsizlik darajasi 7,8 foizni tashkil qilgan. Joriy yilda investitsiya loyihalari, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi sohalarida, qurilish yo'nalishida 20 mingga yaqin ish o'ri yaratildi. Buning hisobiga ishsizlik 4 foizga tushishi kutilmoqda.

Dunyoda global muammolardan biri ishsizlikdir. Yuqoridagi raqamlarning qiymati esa Yangihayot tumani misolida odamlar taqdiri, yashash tarzidagi o'zgarishlarning ibtidosidir. Yash yillargacha xorijda ishlashni o'z taqdiri deb biladigan insonlar ham topilardi. Bu muhit o'z-o'zidan shakllanib qolmagan edi. Chekka hududlarda, tumanlarda iqtisodiy o'sish, sanoat sohasi deyarli to'xtab qolgan. Oqibatda esa qanchalab vatandoshlar umri o'ziga yurtlarda o'tdi.

To'g'ri, aksariyat yurtdoshlarimiz xorijga chiqib ishlash ortidan uylar qurdi, to'ylar qildi.

Ammo ma'naviy yo'qotish-chi? Oramizda ota-onaliki faqat bolani dunyoga keltirishu ularning qornini to'yag'iz deb tushunadigan odamlar ham ko'plab topiladi. Ular bola tarbiyasi butun bir ilm ekani, rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyoti zamirida aynan mana shu ilmga qat'iy amal qilgani yotishini xayoliga ham keltirmaydi.

Endi o'ylab ko'ring, o'zga yurtda tirikchilik tashvishida yurgan odamning farzandi otadan qanday ibrat olib o'sishi mumkin? Balki bolalar orasida axloqiy illatlar ko'payib borishida bu omil ham kattagina rol o'ynar. Bugun farzandlarimizga ajratgan vaqtimiz, mehrimiz va e'tiborimiz eretaga o'limiz va jamiyatimizga hech narsa bilan o'chab bo'lmaydigan insoniy resurs va kapital bo'lib qaytadi, albatta.

Yangihayotlik Farruxbek Anorov ham ancha yil xorijda ishlash yurgan edi. Endi "AIR PRODUCTS" MCHJga sotuv ishlari bo'yicha menejer lavozimiga ishga qabul qilinib, shu yerda oilasini tebratmoqda. Bugungacha Yangihayot tumanida 3500 ga yaqin aholi chet elda ishlash yurgan. "Mahalla yetiligi" ularning har biri bilan subhatlashib, holatini

o'rgandi. Hozir mingga yaqin yurtdoshimiz vatanga qaytgan. 300 dan ziyodining bandligi ta'minlangan.

Bir yilda 300 million so'm daromad

Jamiyat o'zgarishi uchun odamlar o'zgarishi, odamlar o'zgarishi uchun esa tafakkur va dunyoqarashni yangilash kerakligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bugun yuz berayotgan har bir yangilanish epkini, harakati osonlik bilan kechmayapti. Muayyan vaqt hukm surgan muhitda yangi qarashlarni ilgari surish oson emas. Bunda, eng avvalo, odamlarni qiynab kelgan masalalarni o'rtaga tashlash, ularga to'g'ri va xolisona baho berish kerak. Eng muhimi, bu yerda ezigulik yo'lidagi fikr va g'oyalarni to'qnashuviga katta urg'u beriladi. Jamiyat rivoji, odamlarning turmush darajasi yaxshilanishiga, birinchi navbatda, ezigu g'oya ortidagi islohotlar sabab bo'ladi.

Davlat miqosida kambag'allikning rasman tan olinishi va uni qisqartirish borasida huquqiy asos, qonun hujjatlari qabul qilinishi katta hodisa bo'ldi. Bugungi kunda bu yo'nalishga milliardlab mablag' ajratilib, aholi farovonligi sari dadil qadamlar tashlanmoqda.

Yangihayot tumani aholisining kambag'allik darajasi 2021-yili 10,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yil 6,6 foizga tushirishga erishilgan. Bu natijadorlikning asosiy omili turli dasturlar orqali yordam ko'rsatilganidir. Jumladan, "Sayxunobod tajribasi" asosida tumandagi mavjud 30 ta mahallaga tijorat banklari birkirilgan. Dasturlar asosida yordam ko'rsatilishi hisobiga 300 ga yaqin oila kambag'allikdan chiqarilgan.

Yangihayot tumanidagi Sarbon ko'chasida yashovchi Akrom Isoqov o'z tomorqasida turli gul ko'chatlari yetishtirish bilan shug'ullanadi. Bankdan ijtimoizoli kredit olishi hisobiga tadbirkor yiliga 50 ming dona gul ko'chati yetishtirish quvvatiga ega bo'ldi. Akrom aka

mahsulotini mahalla hududiga yaqin joylashgan "Food city" savdo majmuasida sotuvga chiqaradi. Tadbirkor yiliga 300 million so'm daromad ko'rish imkonini borligini eshitib, to'g'ri, havas qildim.

Jahonga yo'l

So'nggi yillarda Yangihayot tumani ko'plab yangi uylar qurilib, oilalar ko'chib kelishi ularning bandligi masalasini o'rtaga tashladi. Shu bois, tumanda yangi sanoat loyihalari ishga tushirilmoqda. Bugungi kunda tumanda 929 gektarda uchta sanoat hududi — "TXAY-DO'STLIK", "Yangihayot industrial texnopark", "Yangi avlod" tashkil etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 4-fevraldagi qarori asosida barpo etilgan "Yangihayot industrial texnopark"ga 110 gektar maydon ajratilgan. Hozir bu yerda qiymati 101 million dollarlik 8 ta korxonaga ishga tushirilgan, 520 ta ish o'ri yaratilgan.

"Almerro Group" mas'uliyati cheklangan jamiyatida "Krember" brendi ostida qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Italiya, Ispaniya va Turkiyadan keltirilgan ilg'or texnologiya o'rnatilgan bu korxonada yiliga 320 milliard so'mlik 80 turdagi qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan. Mahsulotlarning 15-20 foizi Xitoy va MDH davlatlariga eksport qilinadi.

Bugun bu texnoparkda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulot bilan ta'minlash, balki xorijga ham eksport qilish orqali jahon bozoriga chiqayotgani tumanning mamlakatimiz sanoatida o'z o'rnini borligini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 23-noyabrda texnoparkka tashrif davomida tadbirkorlar bilan uchrashar ekan: "Keyingi yillarda tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlar bugun o'z natijasini beryapti. O'zimizning ishbilarmolarni mana shunday ko'p xilda va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqar-

yapti. Bu imkoniyatlarni har yili kengaytirib boramiz. Chunki tadbirkor iqtisodiyot poydevori, davlat tayanchi", dedi.

Qiymati 21 million dollarlik "Vera Modern Electrical" korxonasi 600 turdagi kabel va sim ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Korxonada 60 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Yillik quvvati 150 milliard so'mlik mahsulotga teng. Hozirgi kunda Turkiya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Tojikistonga eksport qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda. Eksportning bir yillik hajmi 4 million dollar bo'lishi rejalashtirilgan.

Bugun boshqa sohalar qatori tadbirkorlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning muammolarini tinglagani, ba'zi mahsulotlar bo'y to'lovidan, soliqlardan ozod qilingani ham yurtimizda iqtisodiy o'sishga katta zamin bo'lmoqda.

Texnopark hududida qurilish materiallari, elektrotexnika, logistika va xizmat ko'rsatish, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati kabi yo'nalishlarda 386 million dollarlik 46 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

"Mimar Group" kompaniyasi tomonidan ikki qavatli majmua qurilib, kichik korxonalar va hunarmandlarga muddatli to'lov asosida sotilmoqda. Ularning har birida alohida ishlab chiqarish va ko'rgazma maydonlari bo'ladi. Bugungi kunda shunday binolarda umumiy qiymati 3 million dollarlik 4 ta loyiha — eshikromlar, to'qimachilik mahsulotlari, qurilish uchun profil va quyosh panellari ishlab chiqaruvchi korxonalar ish boshlagan.

Texnoparkda joylashgan korxonalar uchun mutaxassislar tayyorlashda dual ta'lim yo'lga qo'yiladi, — deydi "Yangihayot" industrial texnopark investitsiya loyihalari monitoring qilish bo'limi boshlig'i Rahmatjon Botirov. — Umuman, texnoparkda 2025-yilda qiymati 235 million dollarlik 37 ta, 2026-yilda esa 50 million dollarlik 1 ta loyiha ishga tushiriladi. Natijada 10 mingga yangi ish o'ri va 35 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

O'tgan o'n oyda Yangihayot tumani 3 mingdan ziyod aholi doimiy ishga joylashtirilgan, zinov o'zi band qilgan 6 ming shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan.

"Yangihayot" industrial texnoparkida qizg'in kechayotgan ish jarayoni bilan tanishib, bu yerda ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan subhatlashar ekanmiz, ko'ngliga o'ziga bira shukuh o'raydiki. Bugun odamlarning qaysidir biri chet elda yurib, o'zga yurtning mashaqqatidan qutulganiga shukr qilsa, yana birining ota-onasiga ro'zg'or yukini tortishda yelkadosh bo'layotganidan mamnunligini sezasiz. Eng muhimi, bugungi bunyodkorlik, yaratilayotgan imkoniyatlar odamlarning turmushidan roziligi, ularning yangi marralar sari odimlashiga zamin bo'lmoqda.

Texnoparkdan chiqqanimda kun g'arbga qarab og'a boshladi. Metro tomon harakatlanar ekanman, hokim bilan yozib olingan suhbatni yana bir qur eshita boshlayman. "Tumanda 2021-yilda jalb etilgan investitsiyalar miqdori 1 trillion 791 milliard so'm, 2022-yilda 1 trillion 862 milliard so'm, 2023-yilda 1 trillion 968 milliard so'mni tashkil etgan.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida 53 ta loyiha hisobiga jami 2 trillion 524,7 milliard so'm investitsiya jalb qilingan bo'lsa, yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatkich 3 trillion 685,6 milliard so'mga yetkaziladi".

700 mingga o'rta qatlamli insonlarning farovonligi ortib, turmushida bo'layotgan o'zgarishlarni ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a. To'g'ri, hali ko'p ter to'kib mehnat qilishimiz kerak. Ammo shu kabi ezigu maqsadlar yo'lida allaqachon dadil qadamlar tashlanyapti. Bu esa juda muhim jihat.

Islohot odimlari

Navbahor tumani — Zarafshon daryosining shimoli-sharqiy qirg'og'ida joylashgan, shimoldan Nurota tog'lari bilan o'ralgan manzil. Tuman hududida miloddan avvalgi V asr — milodiy IV asrlarga oid arxeologik yodgorlik majmualari mavjud. Uchtut qishlog'i yaqinidagi chaqmoqtosh konlari, Sarmishsoy, Qoraungursoy va Bironsoy daralaridagi qoyatosh suratlari bu hudud tarixida insoniyatning muhim manzilgohlaridan biri bo'lganidan dalolat beradi.



LOYIHALAR ISHSIZLIKKA BARHAM BERADI

Olis tarix va bugun o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib turgan bunday yodgorliklar qadimdan ushbu hududda yuksak madaniyat va taraqqiyot bo'lganini ham ifoda etadi. Bugun Navbahor tumanida yangi davr boshlandi, desak yangilishmaymiz. Tuman taraqqiyot sari yuz tutib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar yanada rivojlanmoqda. Hududga xorijiy investorlar va mehmonlar oqimi ortishi tufayli xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ayniqsa, joriy yil navbahorliklar uchun esda qolarli yutuqlar yili sifatida ortda qolmoqda. Prezidentimizning tumanga tashrif davomida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ko'plab istiqbolli loyihalarga start berildi, yirik sanoat korxonalari ishga tushirildi.

Korxonada Xitoy va Turkiya texnologiyasi asosida ishlaydi va bir kunda 200 tonna xomashyo qayta ishlanadi. Maxsus laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yilgani esa mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlaydi. Ayni vaqtda korxonada 80 ga yaqin kishi ish bilan band.

Shuningdek, tumanda turkiyalik tadbirkorlar bilan hamkorlikda ochilgan, qiymati 5,5 milliard so'mga teng "Mengi tekstil" korxonasiida tekstil mahsulotlari va cham-poyabzal ishlab chiqarilmoqda.



Ushbu korxonada erkaklar va ayollar uchun 100 turdagi poyabzal buyumlari ishlab chiqaryapmiz. Mahsulotlarimiz juda sifatli. Shu bois, barchasi eksport qilinadi. Texnologiyalar Xitoy va Turkiyadan keltirilgan, energiyatejamkor, ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Turkiyadan kelgan mutaxassislar mahalliy xodimlarga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatmoqda. Poyabzal

sexining o'zida 60 ga yaqin ishchi ishlaydi. Ularning ko'pi shu yaqin atrofdaqi mahallada yashaydi. Ishchilarning salomatligi, ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratamiz. Yaqinda mamlakat Prezidenti korxonamizga kelib, faoliyatimiz bilan tanishdi. Ishimizni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflarini berdi. Kelgusida O'zbekistonning boshqa hududlarida ham shunday korxonalar ochmoqchimiz. Yaratilgan sharoit va e'tibor uchun minnatdorlik

bidiramiz, — deydi "Mengi tekstil" korxonasi tarkibidagi poyabzal sexi rahbari, turkiyalik ishbilarmol Beshar Mo'ryan.

"Mengi tekstil" korxonasiida 400 ta yangi ish o'rimiga tumandagi ishsiz fuqarolar, "Ayollar dafari" va "Yoshlar dafari"da ro'yxatda turgan xotin-qizlar qabul qilingan.

Navbahor tumani Nurota tog'lariga yondosh bo'lgani sababli so'nggi yillarda bu yerda ham sanoatning toshga ishlov berish yo'nalishi

rivojlanmoqda. "Granite Stone Industry" korxonasi ana shunday granit toshlarni qazib olish va qayta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihalardan. Xitoy texnologiyasi asosida ishga tushirilgan korxonaning yillik granit qazib olish quvvati 220 ming kub metrni tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbari Navbahor tumani bo'lib, shu kabi yangi yirik sanoat korxonalarini ishga tushirish orqali hududda bandlik dasturi uchun aniq va manzilli topshiriq bergan edi. Shunga ko'ra, tuman sektor rahbarlari ham kelgusi yildagi rejalarini belgilab oldi.

Jumladan, tumanda qator loyihalarni ishga tushirish orqali 23 mingdan ziyod yangi ish o'ri ochish ko'zda tutilgan. Hozir shu maqsadda qishloq xo'jaligi, sanoat va turizm yo'nalishida 50 ta yirik loyiha tanlab olingan.

— Joriy yilda tumanimizda tadbirkorlik subyektlari 400 taga oshib, qariyb 3 mingtani

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

**Yurtimizda yoshlar masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bugun ularning o'z iqtidori, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun huquqiy kafolatlar yaratildi. To'laqonli bilim olishi, kasb-hunarli bo'lishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Qo'yingki, yosh avlodning shaxs sifatida kamol topib, farovon kelajagini bunyod etishi uchun barcha sharoitlar mavjud. So'nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlashning noyob tizimi yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.**

**Chori MIRZAYEV,**  
“Turonbank” ATB boshqaruvi raisi

# YOSHILAR

tarbiya va sportga qiziqishni rag'batlantirish maqsadida turli sport turlari bo'yicha “Rais kubogi” musobaqalari tashkil etilayotir. Bu yoshlarning sportga qiziqishini oshirish bilan birga ularni do'stlik va hamkorlik munosabatlarini kuchaytirishga ham sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, yoshlar ma'naviyatini boyitish, kitobga qiziqishini yuksaltirish bo'yicha tadbirlar tashkil qilinmoqda. Zero, teran fikrlik, keng dunyoqarashga egalik zamonaviy kadrlarga qo'yiladigan talablardan biri sanaladi.

“O'zbekiston bo'yab sayohat qili!” shiori ostida sayohatlar tashkil etilayotgan yoshlarni O'zbekiston tarixi bilan yaqindan tanishtirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi.

### Talabalar hali o'qishni bitirmay, mutaxassis sifatida ishlamoqda

Yurtimizda yoshlar, avvalo, intellektual kuch, rivojlanishning muhim drayveri, innovatsiya va g'oyalari ijrochisi hisoblanadi. Shuning uchun ularning ta'limi, bandligi va munosib daromadga ega bo'lishi bugungi islohotlarning bosh maqsadiga aylandi.

Ayni shu yo'lida davlatimiz rahbari oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiya jarayonlarini yo'lga qo'yishi, soddarog' aytganda, yirik ta'lim klasterini yaratish bo'yicha noyob tashabbusni ilgari surdi. Prezidentimizning 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu yo'nalishdagi ishlarni yo'lga qo'yishda biz uchun dasturlamal bo'lib xizmat qildi va birinchilardan mazkur g'oyaning real ifodasini o'z faoliyatimizda aql ettirishga harakat qildi. Jumladan, 2018-yildan oliygohlarda moliya va iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan 2-3-bosqich talabalarini maxsus test sinovlari hamda suhbat asosida kadrlar zaxirasiga kiritib, ularni amaliyotga jalb etdik. Testlardan muvaffaqiyatli o'tgan yoshlar bilan maxsus komissiya a'zolari alohida suhbatlashib, eng iqtidorli va intiluvchan yoshlar tanlab olindi. Mazkur loyiha doirasida talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, tajriba oshirish, amaliyot o'tash davrida muayyan ish haqi olish va o'qishni tamomlagach, bizing tizimda ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ahamiyatli jihati shundaki, oliy o'quv yurtida o'qish davridayoq bank jamoasiga qo'shilib, yetarli tajriba va ko'nikma hosil qilgan intiluvchan yoshlarning salkam 100 amaliyotni ham mustahkamlashi lozimligini nobatga olib, ta'limning 3-bosqichidan boshlab talabaga bankda yarim stavkada ishlash imkoniyati ham taqdim etildi. Ular turli tadbirlarda ishtirok etib, moliya muassasasida yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Eng asosiy, o'qishni tamomlagach, talabalarimiz “Turonbank”da ish bilan ta'minlanishi kafolatlangan. Ushbu loyiha doirasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Hozirga qadar 190 talaba mazkur stipendiya sohibiga aylandi.

Oliy ta'lim bilan integratsiya Kuchli ijtimoiy siyosatda yoshlar tarbiyasi va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim ustuvor yo'nalishdir. Ularga sifatli ta'lim berish, kasb egallashiga sharoit yaratish, intilishlarini qo'llab-quvvatlash doimiy e'tibordagi bo'lib kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashuv tadbirlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida “Turonbank” ATB Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti” Milliy tadqiqot universiteti hamda Qoraqalpog' davlat universiteti bilan hamkorlikda maxsus o'quv-eksperimental baza sifatida “smart o'quv xonalari”ni tashkil qilgan.

Ular haftaning shanba kunlari talabalar bankning yetakchi rahbar xodimlari tomonidan reja-grafik asosida o'tkaziladigan ochiq darslar orqali amaliyotdagi ish uslublari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Bu bilan bank rahbar xodimlari ham o'z ustida ishlash, dars berish tajribasini oshirish hamda moddiy manfaat olish imkoniyati paydo bo'ldi.

Mazkur loyiha 2019-yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, har yili ochiq muloqot tarzida 50 tadan ko'prog' dars tashkil etiladi va ularda har safar 20-30 talaba ishtirok etadi. Bu, albatta, nazariya va amaliyotning ijobiy uyg'unlashuviga katta hissa qo'shmoqda.

nafari bugun departament direktori, boshqarma va bo'lim boshlig'i, hatto yuqori bo'g'in rahbari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunga qadar mazkur loyihaga 300 dan ziyod talaba qamrab olingan.

Prezidentimiz har safar yoshlar haqida fikr bildirir ekan, davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'rta bo'g'in rahbarlari orasida, albatta, kreativ fikrlaydigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi, tashabbuskor yosh kadrlar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu borada bizga davlatimiz rahbarining fikr va tashabbuslari mayoq vazifasini o'tamoqda.

### Eksklyuziv loyiha yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan

2022-yildan e'tiboran, “Turonbank stipendiyasi” ta'sis etilganining motivatsion ahamiyati shundaki, uning doirasida oliy ta'lim muassasalarida moliya va iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan eng iqtidorli, oliy ta'lim muassasalariga yuqori ball to'plab o'qishga qabul qilingan yoshlar tanlab olinib, o'qish yakuniga qadar ularga har oylik maxsus stipendiya joriy etildi va to'lov-kontrakt pullari to'lab beriladi.

Shu bilan birga, loyiha doirasida talaba nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki



## DAVRNING ASOSIY ISHTIROKCHILARI



amaliyotni ham mustahkamlashi lozimligini nobatga olib, ta'limning 3-bosqichidan boshlab talabaga bankda yarim stavkada ishlash imkoniyati ham taqdim etildi. Ular turli tadbirlarda ishtirok etib, moliya muassasasida yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Eng asosiy, o'qishni tamomlagach, talabalarimiz “Turonbank”da ish bilan ta'minlanishi kafolatlangan. Ushbu loyiha doirasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Hozirga qadar 190 talaba mazkur stipendiya sohibiga aylandi.

instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Hozirga qadar 190 talaba mazkur stipendiya sohibiga aylandi.

### Oliy ta'lim bilan integratsiya

Kuchli ijtimoiy siyosatda yoshlar tarbiyasi va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim ustuvor yo'nalishdir. Ularga sifatli ta'lim berish, kasb egallashiga sharoit yaratish, intilishlarini qo'llab-quvvatlash doimiy e'tibordagi bo'lib kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashuv tadbirlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida “Turonbank” ATB Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti” Milliy tadqiqot universiteti hamda Qoraqalpog' davlat universiteti bilan hamkorlikda maxsus o'quv-eksperimental baza sifatida “smart o'quv xonalari”ni tashkil qilgan.

Ular haftaning shanba kunlari talabalar bankning yetakchi rahbar xodimlari tomonidan reja-grafik asosida o'tkaziladigan ochiq darslar orqali amaliyotdagi ish uslublari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Bu bilan bank rahbar xodimlari ham o'z ustida ishlash, dars berish tajribasini oshirish hamda moddiy manfaat olish imkoniyati paydo bo'ldi.

Mazkur loyiha 2019-yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, har yili ochiq muloqot tarzida 50 tadan ko'prog' dars tashkil etiladi va ularda har safar 20-30 talaba ishtirok etadi. Bu, albatta, nazariya va amaliyotning ijobiy uyg'unlashuviga katta hissa qo'shmoqda.

### “Zakovat” o'yinlari yoshlar bilimini sinovdan o'tkazadi

Ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tibor ko'lami yil sayin kengaymoqda. Yoshlarning aql-zakovatini oshiradigan, iqtidorini ro'yobga chiqaradigan loyihalar izchil qo'llab-quvvatlanayotgani, intellektual salohiyatni yuksaltirishga qaratilgan har qanday tashabbus rag'batlantirilayotgani yanada quvonarli.

Prezidentimizning 2022-yil 20-yanvardagi “Zakovat” intellektual o'yinlari aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 2022-yildan buyon “Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda “Zakovat” intellektual o'yinlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

2024-yil davomida Buxoro, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida hamda Toshkent shahrida “Zakovat” o'yinlarining hududiy bosqichlari o'tkazilib, ularda 800 nafar rahbar va xodim ishtirok etdi. Tizimda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni qamrab olish maqsadida o'yinlar turli bosqichlarda tashkil etiladi. Final bosqichida esa 6 nafar xodimdan iborat eng kuchli 3 ta jamoa tanlab olinadi va g'olib jamoalarning har bir a'zosiqa qimmatbaho esdalik sovg'alar hamda pul mukofotlari taqdim etiladi.

“Zakovat” intellektual o'yinlari yoshlarning bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirish bilan birga xodimlarning bir manzilda jam bo'lgan holda o'zaro fikr almashishi uchun ham qulay imkoniyat yaratib beradi. Mazkur tajribani xodimlarning o'z ustida ishlashi va ularga motivatsiya berish uchun 2025-yilda ham davom ettirishni maqsad qilganmiz.

### Sog' tonda sog'lom aql

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilib, yetarli sharoitlar yaratilgan. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham bu boradagi ishlar ko'lamlari kengaytirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu kabi keng ko'lami ishlarga biz ham o'zimizni daxldor deb bilamiz va munosib hissa qo'shish maqsadida xodimlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, turli sport musobaqalarini tashkilotlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Jumladan, xodimlar orasida shaxmat, shaxka, suzish, stol tennis va futbol singari sport turlari bo'yicha turnirlar o'tkazish an'ana tusiga kirgan. 2024-yil davomida o'tkazilgan sport musobaqalarida, xususan, stol tennis bo'yicha 60, shaxmat, shaxka o'yinlarida 55, suzishda 60, futbolda esa 200 ga yaqin xodim ishtirok etgan.

Turnirlar davomida g'oliblarga qimmatbaho esdalik sovg'alar hamda turli sport to'garaklari uchun yo'llanmalar taqdim etiladi. Bundan tashqari, “Turonbank” mamlakatimizda shaxmatning yanada rivoj-

lanishiga hissa qo'shish maqsadida Markaziy Osiyoda eng yosh xalqaro grossmeyster sifatida tanilgan, Jahon 44-shaxmat olimpiadasi g'olibi va “O'zbekiston iftixori” medali sohibi Jahongir Vohidov bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ayni paytda J.Vohidov “Turonbank” ATB brendining rasmiy elchisi sifatida faoliyat yuritadi.

“Turonbank” O'zbekistonda fransuz boksi — savatni ommalashtirishga ham alohida e'tibor qaratgan. Yurtimizda mazkur sport turini ommalashtirish, yoshlarni qiziqitirish yo'lida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, joylardagi foydalanilmayotgan va bo'sh turgan maydonlar ta'mirlanib, 300 yildan ko'prog' tarixga ega savat sport turi bilan shug'ullanish uchun yopiq sport zallari tashkil etilmoqda.

Hozirgi kunga qadar mazkur sport turi bilan 1300 dan ziyod yosh shug'ullanmoqda va ular Osiyo hamda jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ayni damga qadar O'zbekiston jamoasi 80 ta oltin, 72 ta kumush va 93 ta bronza medalni qo'lga kiritgan.

### Ma'naviyat — yangi uyg'unlash sari yo'l

Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish maqsadida joylarda 20 dan ortiq kutubxona tashkil etdik. Ularda turli janrlardagi 10 mingga yaqin adabiyot mavjud va kitoblar fondi doimiy boyitib boriladi. “Turonbank” yurtimizning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etadi. Misol uchun, respublikamizda kitobxonlik madaniyatini saqlab qolish va yoshlarimiz orasida kitobxonlikni keng targ'ib etish maqsadida “Turonbank” ATB tomonidan poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi “Yangi Kamolon”, Uchtepa tumanidagi “Yangiyo'l”, Yashnobod tumanidagi “Bog'bon”, Yunusobod tumanidagi “Turkiston”, Mirobod tumanidagi “Fitrat”, Mirzo Ulug'bek tumanidagi “Oliy himmat”, Chilonzor tumanidagi “Novza” mahalla fuqarolar yig'inlarida kutubxonalar tashkil etilib, ular badiiy, ilmiy va jahon adabiyotining durдона asarlaridan iborat umumiy hisobda 3000 donaga yaqin kitob bilan ta'minlandi.

Mahallalardagi kutubxonalarda zamonaviy va qulay mebel jihozlari, kitob javonlari hamda kompyuter jamlanmalari mavjud. Assosiy, har bir mahalladan 1-2 nafardan ishsiz fuqaro ishl bilan ta'minlanib, kutubxonalariga ishga qabul qilinadi. Ayni dam har mahallada 70-100 nafardan ziyod kitobxon kutubxonada mavjud kitoblarni mutolaa qilib kelmoqda.

### Yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi bilan imzolangan hamkorlik memorandum doirasida “Ustoz AI” loyihasi amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq, 2 milliondan ortiq yoshga zamonaviy kasblar va fanlarni bepul o'rgatish maqsad qilingan.

Mazkur loyihaning keng qamrovli taqdimot marosimi joriy yilning 3-avgust kuni Yoshlar ijod saroyida bo'lib o'tdi va loyiha doirasida 20 ga yaqin sohani qamrab oluvchi 350 dan ortiq videodarslik yaratildi. Bugungi kungacha 156 mingdan ziyod yosh loyiha doirasida bepul bilim olishni boshladi. Shu bilan birga, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida No Code saytlar yaratish kursi joriy qilinmoqda.

Loyiha O'zbekiston yoshlari uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Yoshlar o'zi istagan joydan turib zamonaviy kasblarni egallashi, bandligini ta'minlashi, shu bilan birga, daromadga ega bo'lishi uchun zamin yaratilmoqda. Assosiy, zamonaviy kasblarni bepul o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bundan tashqari, har yili “Global Money Week” haftaligi va Jahon jamg'arish kuni munosabati bilan aholi, xususan, yoshlar va maktab o'quvchilari orasida turli tadbirlar, bank xodimlari bilan uchrashuvlar hamda tanlovlar o'tkazib kelinadi. Shuningdek, YouTube platformasida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar xususiyatlarini yoritib beruvchi videomateriallar joylab boriladi.

“Turonbank” ATB Uchinchi Renessans poydevorining bunyodkorlari bo'lgan bugungi kun yoshlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi hamda malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish yo'lida yangi loyihalarni amalga oshiradi hamda 2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida ham mamlakatimiz moliya bozorining rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shishda davom etadi.



“Prezidentimizning 2022-yil 20-yanvardagi “Zakovat” intellektual o'yinlari aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 2022-yildan buyon “Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda “Zakovat” intellektual o'yinlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.”



Besh yil avval Bo'stonliq tumanida 2240 o'rinli 26 ta maskan bo'lgan bo'lsa, shu davrda sohaga 2 trillion so'mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ko'p o'ringa ega 59 ta yirik turizm inshooti ishga tushirildi. Asosiy avtomobil yo'li ta'mirlanib, qo'shimcha yo'llar qurildi. Bularning natijasida turizm jadal rivojlandi, tashrif buyuruvchilar 12 barobar oshdi.

Safar chog'ida davlatimiz rahbari temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, yo'lovchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, temir yo'llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish bo'yicha mutasaddilarning hisobotlarini tingladi. Mutasaddilar oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi. Toshkent — Xo'jakent elektropoyezdi xalqimizga qanday qulayliklar beradi? Aholi bu yo'nalishdan mamnunmi? Biz Xo'jakentga safarimiz davomida bu kabi savollarga javob oldik.

# YO'LDAGI ODAM

DAVLATIMIZ RAHBARI 6-DEKABR KUNI TOSHKENT — XO'JAKENT YO'NALISHIDA YANGI ELEKTROPOYEZDNI KO'ZDAN KECHIRDI, USHBU POYEZDGA CHIQUIB, HARAKATLANISHI VA QULAYLIKLARINI KO'RDII.

(Ocherk)

Derazaga yaqin o'rindiqa joylashar ekanman, yo'l ocherki, sayohat ocherki avval sira yozmaganim uchun gapni nimadan boshlashni bilolmay parishon edim. Xo'jakent yo'lida favqulodda qiziqarli nimadir sodir bo'lishiga umid bog'lar, ammo ichim bo'shab qolgan ko'zdek tim-tirs edi. Shu darajada tarqoq fikrlardimki, qarshimda jimgina kitob mutolaasiga sho'ng'igan ayolning sahifalarni ketma-ketlikda, ohista ochishi ham g'ashimga tegar, qasdma-qasd vagonidagi g'ala-g'ovur zabtiga olardi. Shu chog' atrofini bolakayning baland ovozdagi yig'isi tutdi. Hamma qatori qiziqsinib ortga o'girdim: taxminan 3-4 yoshlardagi bola nimanidir bahonasida onasiga xarxasha qilyapti. Ayol yosh, birinchi farzand shekilli, ovutishning epini qilolmas, atrofda qolgan idan kelgan chalg'itib, kayfiyat uyg'otishga urinayotgan bo'lsa-da, o'jar bolakay hali-beri ko'nadigan emas. Ochig'i, hammasi chappasiga ketayotgani uchun kayfiyatim buzildi, yozishga hafsalga qolmadim. Ichimdan nega xohlamasa ham bolalarni bunday safarlarga olib chiqishar ekan, ona ham, bola ham aylangandek bo'lmaydi, yetmaganiga boshqalarga ham xalaqit beradiku, degan qitir fikr beto'xtov aylanar ekan, bu yoqimsiz o'yni yonimdagiy ayolga ham zarda bilan aytib yuborganimni sezmay qoldim.

— Nega unday deysiz? Buning nimasi yomon? — dedi u kitobni sekin yoparkan xotirjamlik bilan. — Sayr qilish, ayniqsa, mana shunday shinam poyezdlarda bir joyga o'tlanish, aslida, o'zimni baxtli his qilishimiz uchun moddiy narsalardan ko'ra qiymatliroq. Ya'ni bizga narsalardan ko'ra qiymatliroq bo'lgan yangi tajribalar beradi. Katta-kichik sayohatlarimiz davomida olgan tajribalarimiz esa miyamizda yangi neyron kanallarini ochadi. Bu bizni yanada ijodiy, moslashuvchan qiladi va yangi g'oyalarni beradi. Sayr qilishni biz faqatgina kattalarga tegishli deb o'ylamaymiz. Aslida, bu mutlaqo xato qarash. Sayohat paytida bolaning ijodkorligi, tasavvuri oshadi. Bu ayolning qarorini shaxsan men qo'llab-quvvatlayman. To'g'ri, bola yig'lar, nimadir yoqmas, ammo ishonavering, safar yakunida undan xursand mittivoy bo'lmaydi. Bundan tashqari, safarga chiqish, xoh u uzoq bo'lsin, xoh yaqin, bolalarda qiyinchiliklarga chidamni oshiradi. Bolalar uchun sayohatning bunday "tuzoq"larini boshdan kechirish — adashish, begonalar qurshovi — bularning barchasi uning xarakterini shakllantiradi. Bu ularga yangi narsalarni sinab ko'rish va o'zini o'zi to'liq his qilish imkonini beradi.

Bunday kutilmagan va qanchalik rad etmay, asosli bo'lgan gaplardan hayratga tushdim. Tasavvurimdagi oddiy bir ayolning shunday o'tkir fikrlari hayoni chetga surib, u haqda ko'proq narsa bilishga qiziqishimni oshirib yubordi. Keyin ma'lum bo'ldiki, Laylo opa Turdiboyeva aynan bolalar psixologi bo'lib faoliyat yuritir ekan. Bu sog'lom subhata ochiq, nihoyatda xotirjam, samimiy ayol bilan kechgan subhatimizning davomi uning o'z sohasining chinakam mutaxassisi ekanini tan olishimga majbur etdi. Shu bilan birga, ocherkning boshlanmasi uchun gazetxonlarga manfaatli voqea topib olganimdan besh yil avval xursand ham edim.

— Sayohat orqali bola turli madaniyatlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lib, ularga tarixni kashf qilish, joylashuv haqidagi umumiy ma'lumotlarni, shu jumladan, urf-



Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

odatlarni o'rganish imkoniyatini beradi. Buning uchun aynan boshqa davlat bo'lishi shart emas, yurtimizning o'zida turli qadriyat va madaniyatga ega elatlar bor, odamlar bor, — deydi Laylo Turdiboyeva endi butkul mutolaani chetga surib. U diqqat-e'tiborini o'ziga qaratgan, to'lib-toshib gapirayotganini belidan uzmaslik uchun indamay, yangi narsa o'rganayotgan o'quvchidek zavq bilan eshitib borardim. — Agar bola bir necha madaniyat bilan to'qnashsa, his-tuyg'ularini rag'batlantiradigan yangi tajribalar ularning ijodiy jarayonida muhim vositaga aylanadi. Ko'p



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

madaniyatli tajriba bolaning bilim jarayonlarini o'tkirlashtiradi, turli madaniyatlardan yangi istiqbollarni o'zlashtirish ularga o'z g'oyalari va ongini kengaytirishga yordam beradi.

Sayohat bolaning empatiyasini, hamdardligini, tushunishini va insonlarga nisbatan xabaradorligini chuqurlashtiradi, hayotini yanada boyitadigan odamlar bilan tanishish imkonini beradi. Safar ota-onalar va bolalarni yanada yaqinlashtirib, tushumovchiliklarga barham beradi. Yana bir narsa aytaymi,

mamlakatning jarayoni aro tug'ilib voyaga yetgani sababli ulkan o'zgarishlar uncha sezilmaydi. Har qanday olamshumul islohot bo'lishi shart haddisidek qabul qilinadi. Qarang, birgina safar bir necha avlodning ruhiyatini anglashga qanchalik yordam beradi. Siz esa ichingizdagi beqarorlikni, iloji bo'lsa, hech narsa qilmaslikka moyil fe'lingizdagi lanjlikni shu yoshda inijlik qilishi tabiiy bo'lgan bolakaydan ko'rib o'tiribiz...



Laylo opa qo'pol tarzda ifoda etgan shikoyatimga vazminlik bilan teran o'yab bergan javobi nafaqat o'zimdagi uyalishimga sabab bo'ldi, balki kayfiyatim ko'tarilishiga, allanechuk xotirjam tortishimga ham yordam berdi. O'zgarishlar borasidagi gaplaridan so'ng nega shu narsa oldin xayolimga kelmaganidan hayron bo'ldim. Aslida, men kayfiyatimga

MCHJ direktori o'rinbosari Dilmurod Ubaydullayev. — O'tgan davrda yurtimizda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo'l elektrlashtirildi. Buxoro — Urganch — Xiva temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish yakuniy bosqichda. Miskin — Nukus yo'nalishida ishlar jadal davom ettirilmoqda.



moslab, bo'lajak safarimdan faqat kamchilik, nuqson izlash uchun yo'lga chiqqanimmi, qarorni boshidanoq noto'g'ri qabul qilganimni tushundim. Albatta, ko'kka ko'tarib maqtashdan manfaat yo'q, ammo bo'layotgan ishlar haqida boricha yozmaslik ham to'g'ri emas. Endi nima qilishni aniqlab oldim, vaqtni boy bermay dedim-u, hali poyezd harakatlanmasidan burun bu yangi elektropoyezd, temir yo'l ta'miri, umuman, amalga oshirilgan va ko'zlangan rejalardan boxabar bo'lish uchun mutaxassisi izlashga kirishdim.

— Prezidentimizning 2023-yil 10-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati transformatsiya qilinmoqda. Jamiyat tarkibida infratuzilma, vagon xizmati, yo'lovchi tashish kabilar bilan shug'ullanuvchi 6 ta mustaqil korxonaga ish boshladi. Poyezdlar parki ham kengaytirilib, yo'lovchi tashishda aholi va sayyohlarga qulayliklar oshirilmoqda. Ko'rib turganingizdek, yangi, zamonaviy, mustahkam poyezdlar olib kelindi. Bundan tashqari, Toshkentdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga "Afrosiyob" elektropoyezdlari qatnovi ko'paytirildi, — deydi "Shahar atrofida yo'lovchi tashish"

Toshkent atrofida ham elektrlashgan yo'l qurilib, poyezdlarni o'tkazish imkoniyati 30 foiz oshdi. Mana, yaqin kunlardan beri esa Toshkent — Xo'jakent yo'nalishida yangi elektropoyezd qatnoviga qo'yildi. 6-dekabr kuni davlatimiz rahbari ushbu poyezdga chiqib, uning harakatlanishini kuzatdi.

Safar chog'ida Shavkat Mirziyoyev Toshkent va Xo'jakent oraliq idagi temir yo'lga tutash maydonlarni 2025-yilgi renovatsiya dasturiga kiritib, ularni tartibga keltirishga ko'rsatma berdi. Yo'nalishdagi egri qismlarni to'g'ri qilib qayta qurish orqali kunlik ekspress poyezdlar qatnovini ko'paytirish va ko'proq yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratish topshirildi. "Yashil makon" loyihasi doirasidagi ishlar ham muhokama qilindi. Temir yo'l chetlarini ko'kalamzorlashtirish, suv resurslari cheklangan hududlarda xorijiy tajriba asosida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni ekish zarurligi qayd etildi.

Hozir sizga xuddi bir necha raqamlarni hissiy tarzda ifodalab berayotgandek ko'rinishim mumkin, ammo ishonang, shaxsan o'zim ham bu narsadan xursandman. Ushbu elektropoyezdlarning yo'lga qo'yilishi — sohada katta siljish. O'z ko'zingiz bilan guvohi bo'lib turibiz, vagonlar shinam, yorug' va issiq. Derazasidan izg'irin o'tmaydi, o'rindiqlar na o'tirib, na yotib bo'ladigan

xilidan emas, yumshoq, toza. Darvoqe, o'rindiqlar soni naq 586 ta. Tik turgan holatda 1472 yo'lovchini sig'dira oladi. Videokuzatuv kameralariga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Har bir o'rindiqlar ostida USB portlar mavjud. Ma'lumot taborlari va yong'in xavfsizligi tizimi o'rnatilgan.

Qisqa qilib aytganda, yo'lovchilarimiz uchun maksimal qulaylik yaratilgan. Poyezd soatiga 120 kilometr gacha tezlikka chiqa oladi. Ilgari odamlar ikki soatdan ziyodroq vaqtni yo'lga o'tkazishga majbur bo'lgan bo'lsa, endi roppa-rosa bir soatda Xo'jakentga yetib olyapti. Har bir tarafga kungacha uchmadan qatnov yo'lga qo'yilgan. Poyezd shunday qulay nuqtada to'xtaydiki, siz "Amirsoy" dam olish maskaniga ham, Chorvoq suv ombori va Bo'stonliqqa tutash boshqa diqqatga sazovor joylarga ham qisqa vaqtda yetib borishingiz mumkin.

Chindan, bir soatning nari-berisida tabiati go'zal, bahavo Xo'jakentga yetib bordik. Bu yerda bayroqdek hilpirayotgan ulkan palma daraxtlarining barglarini uchratmasiz, had-hududning dengizning iliq hovuridan ham o'pkangizni to'ldirib nafas ololmasiz, lekin bu zumrad maskan o'zining fusunkorligi, chang qo'nmagan daraxtlari, 20 darajadan ko'tarilmaydigan namxush hamda nihoyatda toza havosi bilan xotirangizda osongina muhrlanadi. Ayniqsa, Bo'stonliq tumanini kosadek o'rab turgan purviqor tog'lar tepaligidan turib osmonga bo'yilashish, o'zining tom ma'noda shaxsiy mikroiklimiga ega hududni tomosha qilish zavqi boshqacha.

Tabiat bag'ridagi bu hududning drayveri, shubhasiz, turizm. So'nggi yillarda infratuzilma yaxshilanib, yilning barcha fasllarida maroqli hordiq chiqarish imkoniyati yaratilgan, dam olish, sog'lomlashtirish, chang'i, sayohat, umumiy ovqatlanish majmualari barpo etilib, eski sanatoriy va bolalar oromgohlari yangilangan ko'rinib turibdi.

Besh yil avval Bo'stonliq tumanida 2240 o'rinli 26 ta maskan bo'lgan bo'lsa, shu davrda sohaga 2 trillion so'mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ko'p o'ringa ega 59 ta yirik turizm inshooti ishga tushirildi. Asosiy avtomobil yo'li ta'mirlanib, qo'shimcha yo'llar qurildi. Bularning natijasida turizm jadal rivojlandi, tashrif buyuruvchilar 12 barobar oshdi.

Tasavvur qiling-a, besh yil oldin Bo'stonliqqa yiliga 850 ming sayohat kelgan bo'lsa, bu yil 11 oyning o'zida 12 million kishi tashrif buyurgan. Natija shu bilan to'xtab qolgan yo'q. Bu sur'at izchil davom etyapti. Masalan, Chirchiq daryosi bo'yida "Chorvoq darvozasi" turistik majmuasi qurilmoqda. Qariyb 25 gektar maydonlari majmuada 16 ta ko'p qavatli uy, 3 ta mehmonxona, 2 ta supermarket, 60 dan ziyod savdo va maishiy xizmat shoxobchasi, kafe va restoranlar, bank ofisi, akvapark, musiqali favvara, avtoturargoh bo'ladi. Binoqlar tepasiga qyovsh panellari o'rnatiladi. Daryo ustida sayr uchun shishali ko'priklar quriladi. Majmua kuniga 5 mingdan ortiq kishiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ladi. Mavsumiylik bilan birga 2500 ta ish o'rni yaratiladi.

Prezidentimiz xizmat turlarini ko'paytirib, faol turizmni rivojlantirish, bunday majmualarni boshqara tumanlarga ham loyihalashtirish, hududlarda ekologiyaga alohida e'tibor berish, yashillikni ko'paytirishni maqsad qilganini yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan bilib olish qiyin emas.

Poytaxtga tushdan keyin qaytib kelgan bo'lsam-da, u yerdagi ruhiy quvvatga to'yinib olishga ulgurdim. Muhimi, bu kichik sayohat menga mas'uliyatli bo'lish kerakligini o'rgatdi. Derazadan men tomosha qilgan va ancha vaqt ko'z oldimdan ketmaydigan tasvirlar hayoti yanada farovonlashishini istayotgan, inson qadri birinchi o'rinda bo'lishini chin ko'ngildan xohlayotgan hamda shunga yarasha mehnat qilyotgan davlat-u millat oldida xuddi shu umummaqsadni amalga oshirishda mas'uliyat his qilish lozimligini eslatdi. Nazdimizda kichik, biroq sifatli ishlar bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga biz o'ylagandan ko'ra kattaroq hissa qo'shishimiz mumkinligiga ishonch berdi. Bu ishonchni baham ko'rish orqali esa oz bo'lsa-da, o'z vazifamizni bajaromqadamiz deb o'ylaymiz.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 4469. 39932 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva  
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy